

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRIDA TARBIYALASH

Nizomiy nomli TDPU

“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedra

v.b.dotsenti **Maxmudova Durdona Mirkarimovna**

4 kurs talabasi **Qodirova Shahnoza Saidazim qizi**

Annotatsiya: Ijtimoiy muhitning va ijtimoiy rollarning inson hayotidagi ahamiyati, shaxsning sotsiumga bo'lgan munosabati hamda sotsiumga bo'lgan adaptatsiya jarayonini o'rganish, turli xil tipik xususiyatga ega bo'lgan shaxslarni shaxsiy hislatlarni sotsiumda shakllantirish va tahlil etish va ijtimoiy pedagogikaga bo'lgan ehtiyojini oshirish.

Tayanch so'zlar: Sotsium, hislat, adaptatsiya, ijtimoiy, shaxs, ijtimoiy pedagogika, jamiyat, individullashuv, moslashuv, tarbiya, ota-ona, intellektual, odat, bilim, garmonik, ijtimoiy-axloqiy, omil, megaomil, makroomil, mezoomil, mikroomil, mustaqil, komil, rag'batlantirmoq, oila, qo'rquv, hissiyot, xolerik, sangvenik, melanxolik, flegmatik, omma, norma, rejim, nuqson, nutq.

Аннотация: Изучение роли социальной среды и социальных ролей в жизни человека, отношения личности к социуму и процесса адаптации к социуму, формирование и анализ личностных ощущений в социуме людей с различными типичными чертами личности и повышение потребности в социальной педагогике.

Ключевые слова: Социум, чувство, адаптация, социальный, человек, социальная педагогика, общество, индивидуализация, адаптация, образование, воспитание, интеллектуальный, привычка, знание, гармонический, социально-этический, фактор, мегафактор, макрофактор, мезофактор, микрофактор, независимый, совершенный, поощрять, семья, страх, эмоция, холерик, сангвиник, меланхолик, флегматик, масса, норма, режим, дефект, речь.

Annotation: To study the importance of the social environment and social roles in human life, the individual's attitude to society and the process of adaptation to society, to form and analyze the personal feelings of individuals with different typical characteristics in society, and to increase the need for social pedagogy.

Keywords: socium, feeling, adaptation, social, person, social pedagogy, society, individualization, adaptation, education, parenting, intellectual, habit, knowledge, harmonic, socio-ethical, factor, megafactor, macrofactor, mesofactor, microfactor, independent, perfect, encourage, family, fear, emotion, choleric, sanguine, melancholic, phlegmatic, mass, norm, mode, defect, speech.

Ijtimoiy jarayon bu har bir insonning ijtimoiylashuv jarayoniga kirisha olishni ta'minlab beruvchi jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayoni insonning dunyoga kelishidanoq amalga oshiriladi. O'zaro kirishuvchanlik jarayoni har bir insonda turli xil ko'rinishda sodir bo'ladi. Har bir yosh davrida ham ijtimoiy jarayonning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bor. Maktabgacha ta'lim – bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inbatga olgan xolda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltilgan yaxlit jarayondir.

Bugungi kunda shaxsning ijtimoiylashuvi o'ziga xos jarayon sifatida, shaxsning hayoti va faoliyatida o'z aksini topadi. Bolaning mustaqil hayotga qadam qo'yishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxsning jamiyat hayotiga, uning ijtimoiy ta'sirlariga moslashishi, uning ijtimoiy voqelikni bilish va anglash faoliyatiga bo'lgan muhim ehtiyoji sifatida paydo bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o'smirlar, o'spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p sonli shart-sharoitlar zahirida yuzaga keladi. Ijtimoiylashuv jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir etadi:

Tashqi omillar:

- megaomillar(mega-ulkan) - koinot, butun yer sharidagi jarayonlar.
- makroomillar(makro-katta) - davlat va jamiyatdagi demografik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ekologik omillar.
- mezzoomillar(mezo-o'rta) – muayyan hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, muayyan guruhlarining ijtimoiylashish shart-sharoitlari.
- mikroomillar(mikro-kichik) – alohida shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar tizimi(oila, mahalla maskanlari, tengdoshlar guruhi, ta'lim va tarbiya muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari). Ijtimoiylashuv shaxsning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir, u ayniqsa bolalik va o'smirlilik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Dastlab, bolaning maktabgacha ta'limga adaptatsiyasi bu uning hayotidagi eng asosiy ijtimoiylashuvning bosqichlardan biri hisoblanadi. Bolaning sotsiumga moslasha olmasligi emotsional holatining boshqara olmasligini keltirib chiqaradi. Bunda masalan, bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelganida yeg'lashi yoki haddan tashqari onasini chaqirishi bunga misol bo'la oladi. Bunda bola faqat onaga bog'lanib qolganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham bolani ijtimoiy muhitga va o'ziga yaqin bo'lgan muhitga moslashtirish kerak. Yani, bitta onaga bog'lanib qolmaslik uchun qolgan oila a'zolari bilan ham ko'proq vaqtini o'tkazishi lozim. Undan tashqari ko'proq sayr qilish va o'zining tendoshlari bilan vaqtini o'tkazish ham kirishuvchanlikni shakillantirib boradi.

Bolaning uyqu bilan bog'liq bo'lgan muammolar ham uchrab turadi. Bu kunlik rejimning yaxshi tashkil etilmaganligidan dalolat beradi. Bolaning shakillanishi uning uyqu rejimiga bog'liq. Hattoki, yoshi katta insonlarning kunlik ehtiyojini fiziologik jarayoning muntazam garmonik ushlab turuvchi bu uyqu hisoblanadi. katta yoshdagi odamlarning uyqu normasi 8 soatdan iborat bo'lishi kerak. Yosh bolalarniki esa, ozgincha farq qiladi. Har bir yosh davrida bolalarga belgilab berilgan norma mavjud. Agar shunday normaga rioya qilsa bola sog'lom bo'ladi. Uyqusi bilan bog'langan kamchiliklar bu oila muhiti bilan bog'liq yoki quruv bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda bolaning rivojlanish darajalari bor. Bola rivojlanayotgan davrda belgilangan tartibda olib borilishi kerak. Bolaning uyqusini ota-ona nazorat qilishi kerak.

Qo'rquv tushunchasi bolada o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi. Qo'rquvni unga tashqi muhit ta'sirida biron bir narsa yoki biror bir shaxs o'rgatishi mumkin. Bu qanday holat? Bola yoshligidanoq yaxshi va yomonni ajratishni bilmaydi. Hattoki, urushishni ham bilmaydigan bolalar mavjud. Nimaga deb o'ylaysiz? Sababi oddiy, chunki bolaga uni o'rgatishmaydi va ko'rsatishmaydi. Qo'rquv ham shundaydir. Turli xil kundalik hayotimizdagi jarayonlardan, video filimlardan ko'rib bola "shunday qilish kerak ekan" degan xulosaga keladi. Shu holatni qaytaradi yani, taqlid qiladi. Shundan keyin turli xil mavjudotlar ko'z o'ngida gavdalanadi. Demak, bola ko'rganini qilar ekan. Qo'rquv ham shundan kelib chiqadi. Qo'rquvni yengish mumkinmi? Alabatta, buni yengish mumkin. Chunki qo'rquv bu insonning tashqi muhitga bo'lgan aks ta'siridir. Bunda shaxs o'zini himoya qilish uchun shunday reaksiyalar qaytaradi. Ammo yo'q bo'lgan narsalarni bor deb hisoblash bu fantaziyaga misoldir. Bir nechta qo'rquvni

yengishga yordam beradigan usullar bordir, bunday usullar yosh bolajonlarga va katta yoshdagi o'smir yoshdagilarga ham yordam berishi mumkin.

Qo'rquvni yengishda qo'llaniladigan usul:

Birinchi navbatda ota-ona bilan suhbatlashish va bola bilan suhbat olib borish kerak. Aynan nimadan qo'rqishini aniqlash va kerakli bo'lgan metodlarni qo'llash kerak. Agarda bola qorong'ulikdan qo'rqa, bosqichma bosqich qo'rquvni yenguvchi metodni qo'llash lozim. Bu metod yoshi kattalarga ham to'g'ri keladi. 1-navbatda bolani yotadigan joyini alohida qilish lozim. Bolaning xonasiga televizor, yoqtirgan o'yinchoqlarini atrofiga qo'yib qo'yish kerak va yorug'lik tushib turuvchi chiroq, lampa yoki, kiraverishni chirog'ini yoqib qo'yish lozim. Bu kabi, predmetlarni har ikki haftada kamaytirib borish lozim. Agarda bola ko'nikmasa har oydan davom ettirish kerak. Masalan, yoqtirgan o'yinchoq'ini bittan olish, so'ng televizorni o'chirish. Agar bola kiraverishdagi chiroqni yoki lampasiz uxlay olmasa demak, shu yerda bosqichimiz to'xtaydi.

Ko'p jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning bolani bo'lajak o'zgarishlarga qanday axloqiy va jismoniy tayyorlanganiga, shuningdek, bolaning individual tipologik xususiyatlariga bog'liq xolerik va sangvinik odamlar flegmatik melanxoliklarga qaraganda tezroq moslashadi. Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidan tengdoshlarva kattalar bilan muloqot qilish san'atini o'rgatishlari, to'g'ri kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Bolaning eng kichik yoshidanoq uning mustaqilligini rag'batlantirish kerak, keyin u sog'lom va komil shaxs bo'lib o'sadi. Bolaning moslashgan birinchi belgilari:[2]

Hissiyotlarni namoyon etish bolalarning normal holatda shakillanayotganini va hissiyotlarini normal namoyon etishidan dalolat beradi. Bolalar sho'h bo'lishiga qaramay baqirish va baland ovozda turli xil tovushlarni chiqarishi bolaning gapirishga va so'zlarni hosil qilishga yordamchi vosita bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarga hech qachon "Og'zingni yum" degan gapni aytish kerak emas, bolani to'g'ri yo'naltirish lozim. Jismoniy shikast yetqazish ham bolaga nisbatan uning ruhiy holatiga katta ta'sir etishi mumkin. Masalan, bolaning nutqidagi nuqsonning paydo bo'lishi, ijtimoiy jarayonga moslashaolmaslik, qo'rquvning yuqoriligi va ko'plab kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, hozirgi kunga kelib, zamon rivojlanib borishi munosabati bilan ko'plab oila haqida va turmush rishtalarini va bolaning sog'zlom bo'lishi uchun ko'plab markazlar mavjud. Hattoki, shunga oid kitoblar ham bor. Buni chuqur o'rganib erkak va ayol oila qurishga tayyor deb hisoblash mumkin. Sababi, oila- bu eng oliy ne'matdir.

Adaboyotlar ro'yxati:

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 177-180.

4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Makhmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 8, 61-63.
9. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. Экономика и социум, (1-1 (80)), 157-159.
10. Makhmudova, D. M. AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING.